

UDK: 633:5.51.511

ANDIJON-35 G'O'ZA NAVINING O'SISHI VA RIVOJLANISHI, CHILPISH MUDDATLARIGA BOG'LIQ XOLDA BARG SATXINING SHAKILLANISHI

Uljaboyev Alijon Abdullajonovich, dotsenti q.x.f.f.d. Karabayev Kaxramonjon Abdirasulovich, magistr. Bo'taboyev Javlonbek Maxmudjonovich, magistr, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Abstract: *The effect of weeding on the growth and development of the Andijan-35 cotton variety, and the formation of the leaf surface in the conditions of the light gray soils of the Andijan region.*


Key words: *Light gray area, Andijan-35 variety, ripening periods, plant growth and development.*

G'o'zaning o'sib rivojlanishini aniqlab borish, tajribalar olib borishda eng muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki, o'simlikning o'sib-rivojlanishiga tajriba maqsadida keltirilgan omillardan tashqari havo-harorati, oziqlantirish va sug'orish tartiblari kabi ko'plab omillarga ham bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, turli g'o'za navlari har xil hududlarda o'rganilayotganda, ularning turlicha rivojlanishi muqarrar.

Ko'p yillik tajribalarga suyanan holda shuni ta'kidlash mumkinki, har bir g'o'za navi o'zining biologik xususiyatlariga, ko'chat qalinligiga va shu kabi boshqa agrotexnik tadbirlarga bog'liq hisoblanadi. Shuningdek, turli mintaqalarga ya'ni ularning tuproq-iqlim sharoitlariga qarab har bir g'o'za navi o'zining biologiyasidan kelib chiqqan holda rivojlanish fazalarining davomiyligi bo'yicha farqlanadi. O'z navbatida fenologik kuzatuvlarda bu o'z aksini topdi. Tadqiqotlarning 2023 yilda olingan natijalariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Andijon viloyati sharoitida parvarishlangan Andijon-35 g'o'za navi o'rganilib chiqildi. O'tkazilgan fenologik kuzatuvlarda andoza sifatida ekilgan o'rta tolali Andijon-35 g'o'za navining iyun oyidagi fenologik ko'zatuvlariga ko'ra, nazorat variantida hamda chilpish 11-12, 13-14, 15-16 hosil shoxida o'tkazilgan variantlarga mos ravishda o'simlikning bo'yi o'rtacha 17,9-18,1-18,5-19,1

sm ni, chinbarglar soni 6,1-6,7-7,1 donani tashkil etgan bo'lsa, iyul oyida g'o'zaning bo'yi o'rtacha 57,2-58,1-57,2-56,9 sm ni, hosil shoxlari 7,1-6,8-6,6-6,7 donani, shonalari 8,9-9,3-9,1-9,5 donani tashkil etganligi aniqlandi. Ushbu variantlarda 1-avgust holatiga kelib mos holda o'simlikni bo'yi o'rtacha 97,5-102,9-105,6-106,7 sm ni, hosil shoxlari 11,6-13,1-13,9-13,8 donani, shonalari 5,2-4,5-4,6-4,1 donani, tugunchalari o'rtacha 4,1-3,7-3,1-3,2 donani tashkil etib, har bir tupda o'rtacha 9,8-10,1-10,3-9,9 dona ko'sak borligi qayd etildi (1-rasmga qarang).

1-



rasm: Andijon-35 g'o'za navining o'sish va rivojlanishi, 2023 yil.

Ushbu g'o'za navida 5-6 variantlarida rejalashtirilgan va chilpish 13-14, 15-16 hosil shoxida o'tkazilgan variantlarda 1-avgust holatiga kelib o'simlik bo'yi o'rtacha 100,5-101,1-sm ni, hosil shoxlari 13,3-13,1 donani, shonalari 4,6-3,8 donani, tugunchalari o'rtacha 3,2-3,6 donani tashkil etib, har bir tupda o'rtacha 8,9-7,8 dona ko'sak borligi, aniqlandi.

G'o'zaning Andijon-35 navi 2023 yilda ekib parvarishlangan 6 ta varintlarda, yani nazorat va g'o'zaning turli hosil shoxlarida chilpish chilpish o'tkazildi. Bunda chilpilmagan variantda barg satxi 2841,0 sm² ni, gektariga 28466,8 m² ni, 11-12 hosil shoxida o'tkazilganda barg sathi mos ravishda 2650,0 sm² ni, gektariga 26553,0 m² ni,

tashkil etgan bo'lsa, 13-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan 3-5 variantlarda barg sathi 3100,0-3097,0 sm² ni, gektariga 31062,0-31031,9 m² ni, tashkil etganligi ma'lum bo'ldi. G'o'za nihollari 15-16 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan 4-6 variantlarda barg sathi mos ravishda o'rtacha 3045,0-3000,0 sm² ni gektariga 30510,9-30060,0 m² ni, tashkil etganligi malum bo'ldi. Shuningdek, ushbu g'o'za navida chilpish o'tkazilmagan variantga nisbatan ko'proq barg sathi 3-5 variantlarda kuzatilib 2565,1-2595,2 m² ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, sentyabr oyiga kelib barg sathi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Andijon-35 g'o'za navida ko'chat qalinligini 100,2 ming tup/ga qoldirilib parvarishlangan fonning 13-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan variantdan olinganligi ma'lum bo'ldi. Eng kam barg sathining to'planishi o'rta tolali Andijon-35 g'o'za navini 100,2 ming ko'chat qoldirib parvarishlangan nazorat va 11-12 hosil shox qoldirib, chilpish o'tkazilgan variantida qayd etildi.

1-jadval

Chilpish muddatlariga bog'liq holda g'o'za barg sathi yuzasi, 2023 yil.

No	Turli xosil shoxlarida chilpish o'tkazish	Barg sathi, sm ² /o'simlik	Barg sathi m ² /ga
Andijon-35 navi 2023 yil			
1	chilpishmagan	2841	28466,8
2	11-12	2650	26553,0
3	13-14	3100	31062,0
4	15-16	3045	30510,9
5	13-14	3097	31031,9
6	15-16	3000	30060,0

Ta'kidlab o'tish kerakki, barcha g'o'za navlarida ko'chat soni ortgan sari, gektar hisobiga barg sathi ko'p bo'lishi kuzatildi va bu qonuniyatlar boshqa yillarda ham

saqlanib qolindi va ular haqidagi batafsil ma'lumotlar 1-jadvalga qarang, ma'lumotlar ketirib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO'YXATI.

1. Улжабоев, А., & Козимжонова, М. (2023). Тупроқ шўрланишининг ғўза ҳосил шохлари бўғин оралиқлари ҳамда ҳосил шохларида жойлашган кўсакларнинг бўғин оралиқлари шаклланишидаги роли. *Евразийский журнал академических исследований*, 3 (2 Part 2), 54-56.
2. Abdullajonovich, U. A. (2023). Sho'rlangan tuproq sharoitida S-8290 g'o'za navining amal davrida o'sishi va rivojlanishi. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 3(6), 52-54.
3. Abdullajonovich, U. A. (2023). Influence of planting date and soil conditions on the germination of cotton seeds sultan. *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 3(6), 72-73.
4. Abdullajonovich, U. A., & Nodirjon, K. M. (2022). Efficiency of Defoliation on Low Salt Fields. *The Peerian Journal*, 5, 1-7.
5. Abdullajonovich, U. A., & Mamurjan O'g'li, O. A. (2022). Effect Of Soil Salinity On Cotton Leaf Development And Weight Change. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 287-289.